



MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.

Abdurasulova Dilbar Turaevna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur makolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng aholi salomatligini muhofaza qilish sohasini qaytadan isloh qilish boshlanganligi tahlil kilingan. Jizzax shaharida xam Sog‘liqni saqlash tizimining asosiy tamoili – profilaktik yo‘nalishi tiklanganligi; uning zamonaviy va samarali usullarini ishlab chiqilib va amaliyotga joriy etilganligi; onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirilganligi ilmiy tahlil kilingan.

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, islohotlar, profilaktika muassasalari, statsionar shifoxonalar, shoshilinch tibbiy yordam.

РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ГОРОДЕ ДЖИЗАК В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ.

Аннотация. В данной статье анализируется, как после достижения независимости Узбекистаном было начато проведение реформ в области охраны здоровья населения. Рассматривается восстановление основного принципа системы здравоохранения в городе Джизак — профилактическая направленность; разработка и внедрение современных и эффективных методов профилактики; усиление мероприятий по охране здоровья матерей и детей, проведенные научные исследования.

Ключевые слова: охрана здоровья, реформы, профилактические учреждения, стационарные больницы, экстренная медицинская помощь.

REFORMS IN THE HEALTHCARE SECTOR IN THE CITY OF JIZZAKH DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Abstract. This article analyzes how, after Uzbekistan gained independence, reforms in the field of public health were initiated. It discusses the restoration of the main principle of the healthcare system in the city of Jizzakh — a preventive approach; the development and implementation of modern and effective preventive methods; the strengthening of measures to protect the health of mothers and children, along with scientific research conducted in this area.

Keywords: healthcare, reforms, preventive institutions, inpatient hospitals, emergency medical assistance.

Kirish. “Sihat salomatlik xar bir inson uchun butun aholimiz uchun xech narsa bilan o‘lchab baholab bo‘lmaydigan buyuk ne‘matdir. Fakat sog‘lom inson va sog‘lom halk mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz” darxakikat aholi salomatligini asrash va mustaxkamlash borasida mustaqillikning dastlabki yillaridan tub islohatlar o‘tkazildi. Mamlakatimizdagi kabi Jizzax shahrida xam sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar bosqichma bosqich olib borildi. Birinchi bosqichda (1991—94 yillar) butun e‘tibor onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, demografik ko‘rsatkichlarni barqarorlashtirish, yuqumli kasalliklarni kamaytirishga qaratildi.

Ikkinchi bosqichda (1994—98 yillar) dorixonalar va bir qancha davolash profilaktika muassasalari xususiylashtirildi, ambulatoriya poliklinika xizmati rivojlantirilib qayta tuzildi.

1998-yildan Sog‘liqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi 1998-yil 10 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1998— 2005-yillarda Sog‘liqni saqlash tizimini qayta qurish Davlat dasturi qabul qilindi. Unda mamlakat aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirish tadbirlari ko‘rsatib berildi. Bu dastur asosida Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inini mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyotini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Mazkur ishlar Jahon banki bilan hamkorlikda „Salomatlik“ loyihasi asosida amalga oshirildi. Bu Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va umumiy amaliy tibbiy xodimlar tayyorlash imkonini berdi.

2014 yilda Jizzax shahrida 29 ta statsionar shifoxonalar mavjud bo‘lib, unda 2.196 ta o‘rin bo‘lgan. Bundan tashqari, vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 59 tani tashkil etgan. Shaharning har 10 ming aholisiga o‘rtacha hisobda 133.7 ta kasalxonadagi o‘rinlar, 47.9 nafar vrach, 3.166 nafar tibbiy hamshiralar to‘g‘ri kelgan.

2010-2015 yillarda Jizzax shahrida 105 o‘rinli qiymati 10,7 mlrd. so‘mlik viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 60 o‘rinli qiymati 5,8 mlrd. so‘mlik viloyat onkologiya dispanseri binolari yangidan qurib foydalanishga topshirildi.

2019-2020 yillarda Shahar bo‘yicha 27 ta shifoxona muassasalari faoliyat olib borgan. Yil davomida ularda 166 750 nafar bemor davolangan. Shifokorlar soni o‘tgan 2019 yilga nisbatan 3,9 foizga, o‘rta tibbiyot xodimlari soni 11,2foizga kamaygan. Shaharda ambulatoriya poliklinikalari muassasalari soni 47 tani tashkil etadi. Jizzax shaxrida 131 koykalar soni 2440ta. Ayrim kasalliklar bilan kasallanish holatlari bo‘yicha o‘shish kuzatilgan. Masalan, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan ko‘z va uning qo‘shimcha apparat kasalliklari 2,6 barobarga oshgan bo‘lsa, teri va teri ostki to‘qimasi kasalliklari bo‘yicha 1.4 barobarga oshgan.

2020-2021 yillarda Jizzax shaxrida 29 ta shifoxona muassasalari 68 ta ambulatoriya poliklinika muassasalari faoliyat yuritgan. Shaharda mutaxassisligi bo‘yicha 1035 ta shifokor ish olib boradi. Mutaxassisligi bo‘yicha o‘rta tibbiy xodimlar soni 3636 tani tashkil qiladi.

Shahardagi tibbiy muassasalar- Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Jizzax filiali, Jizzax viloyat Ko‘z shifoxonasi, Jizzax viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Ko‘p tarmoqli tibbiy markaz, Markaziy bolalar shifoxonasi, Viloyat tug‘ruqxonasi, Bolalar va

kattalar stomatologiyasi, Onalar va bolalarni muxofaza qilish ilmiy markazi, Jizzax shahar tibbiyot birlashmasi shular jumlasidandir.

Jizzax shahridagi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filiali. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi tizimining yangi shakli joriy etildi. Natijada mamlakatning hamma hududlarida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishga, uyga vrach chaqirish bilan malakali tibbiy yordam ko‘rsatish o‘rtasidagi vaqtni ancha qisqartirishga muvaffaq bo‘lindi. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax shahar kasalxonalari bo‘limlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish ishlari amalga oshiriladi. Viloyat shoshilinch tibbiy yordam shifoxonasi 1976 yil tashkil etilgan 2000 yilda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filialiga aylantirilgan. Muassasa tarkibidagi bo‘limlar nomi: Shoshilinch kardioterapiya, I-xirurgiya, II-xirurgiya, III-xirurgiya, nevrologiya, reanimatsiya, bolalar reanimatsiyasi, ginekologiya, xamkor va asoratlangan travmalar, neyroxirurgiya, kabul-dagnostika va bolalar xirurgiyasi. Jami ishchi- xodimlar soni 965 nafar, shundan:shifokorlar-126 nafar, o‘rta tibbiyot xodimlari-518 nafar, boshqa xodimlar-321nafar.Umumiy jixozlanishi- Elektrokardiograf (yurakni tekshiruvchi uskuna)- Avtoklav (sterilizatsiya qilish uskunasini)- Rentgenograf, rentgenoskop:- Kompyuter tomograf:- Ezofagogastroduodenofibroskop:- Ultratovushli tekshirish apparati:-Binokulyar mikroskop (2 ko‘z orqali ko‘ruvchi mikroskop):- Elektrotsentrofuga (laboratoriya apparati):- Dizel generatori (yoqilgi yordamida elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi uskuna). Viloyatning 417.500 nafardan ortiq aholisiga xizmat ko‘rsatiladi. 2020 yilda 17888 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 85720, o‘rin aylanishi 83.0, bir bemorning o‘rtacha davolanishi 4.7 kun bo‘lgan. 2021 yilda 13332 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 62815, o‘rin aylanishi 62,0 bir bemorning o‘rtacha davolanishi 4.7 kun bo‘lgan. 2022 yilda 13901 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 62809, o‘rin aylanish 64,7 kun.

Jizzax viloyat Ko‘z shifoxonasi. Jizzax viloyat ko‘z kasalliklar shifoxonasi 1974 yilda shifoxona shaklida tashkil etilgan. Bugungi kunda shifoxonada malakali xodimlar faoliyat yuritishmolda, shulardan jami ishchi xodimlar soni 75 nafar, shifokorlar 12 nafar, shundan 6 ta oliy toifadagi, 2 ta birinchi toifadagi, 2 ta ikkinchi toifadagi, 2 ta kategoriyasiz shifokorlar, o‘rta tibbiyot xodimlari 34 nafar, boshqa ishchilar-37nafar. Shifoxona 1mln 200 ming nafar aholiga xizmat ko‘rsatadi. O‘rinlar soni 74ta. 2022 yilda davolanganlar soni 2987 ta, operatsiyalar soni 123 ta, lazer operatsiyalar soni 41 ta. 1850 dan ortiq bemorlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. 2021 yilda olingan yangi A/B skan yordamida tashxisni aniqlashtirish uchun xamma bemorlar

Jizzax shahridagi Jizzax viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi 1974 yilda Jizzax viloyat kattalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi shaklida 1977 yilda Jizzax viloyat bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi shaklida.1998 yilda viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga aylantirilgan Muassasa tarkibidagi bo‘limlar nomi:

reanimatsiya, boks brusellyoz, ichak kasalliklari, gepatit bo‘limi, laboratoriya, gepatologiya markazi.

Jami ishchi xodimlar soni: 378 nafar, shundan: shifokorlar-28 nafar, o‘rta tibbiyot xodimlari-204 nafar, boshqa ishchilar-142 nafar. Umumiy jihozlanishi-elektrokardiograf (yurakni tekshiruvchi uskuna) – avtoklav (sterilizatsiya qilish uskunasi); - quruq havo bilan jihozlarni sterilizatsiya qilish uskunasi; - binokulyar mikroskop (2 ko‘z orqali ko‘ruvchi mikroskop);- elektrotsentrifuga (laboratoriya apparata);-ultratovush apparati.

Jizzax viloyatiniig 1200000 nafardan ortiq aholiga xizmat ko‘rsataladi. 2021 yil shifoxonada 7036 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 50245, o‘rin aylanishi 66,8, bir bemorning o‘rtacha davolanishi 7,3kun bulgan. 2022 yil shifoxonada 6051 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 44458, o‘rin aylanishi 57,6, bir bemorning o‘rtacha davolanishi 7,4 kun bo‘lgan. 2023 yil shifoxonada 6654 nafar bemor davolangan, o‘rin kuni 49910, o‘rin aylanishi 63,6 bir bemorning o‘rtacha davolanishi 7,1kun bo‘lgan.

2021-2022-2023-2024- yillar davomida kasallikka chalinmaslik yo‘llari xamda dastlabki simptomlar aniqlanganda fukarolarning qanday yo‘l tutishlari borasida tashkil etilgan 500 dan ziyod targ‘ibot tadbirlarida faoliyati shuningdek shaxar va tuman tibbiyot birlashmalari, o‘rtasida yuqumli kasalliklarni erta aniqlashda bakteriologik, serologik, fermentlar, immunofermentanaliz tekshiruvining ahamiyati to‘g‘risida, diareya kasalligi, gepatit kasalligi, meningit va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar diagnosgikasi, klassifikatsiyasi, davolari mavzularida maruza bilan ishtirok etadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng aholi salomatligini muhofaza qilish sohasini qaytadan isloh qilish boshlandi. Jumladan Jizzax shaxarida xam Sog‘liqni saqlash tizimining asosiy tamoili – profilaktik yo‘nalishi tiklandi; uning zamonaviy va samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etildi; onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirildi; tibbiy ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirildi; ilmiy tadqiqot ishlarini davr va jamiyat hayotining talablaridan kelib chiqqan holda qayta tashkillashtirildi; mamlakatda sifatli va yetarli miqdorda doridarmon, tibbiy ashyolar hamda shu sohaga talluqli texnik vositalar ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirildi; Sog‘liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasi yanada yaxshilandi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

- 1.Mirziyoyev SH. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” T.O‘zbekiston B 199
- 2.Karimov Sh. I., Muhamediyarova R. G. va boshqa, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash. Muammo va istiqbollari, T., 1998; Nazirov F.G‘. Ona va bola salomatligi yo‘lida. T., 2001.
- 3.<http://jizzax.uz/uz/2015/11/13/jizzaxda-tibbiyot-xodimlari-kuni-keng-tantana-qilindi/#more-2529>
- 4.Саидов Ф.Ф. Жиззах вилояти ижтимоий соҳасининг 2023 йил ҳолатига Жиззах вилояти ижтимоий соҳасида амалга оширилган ишлар таҳлили. Жиззах, 2023